# Termiz shahrida yoshlar bilan ishlashning namunali tizimi joriy etiladi



**Termiz shahrida yoshlar bilan ishlashning namunali tizimi joriy etiladi**

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yilning 11 aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida belgilab berilgan topshiriqqa asosan Termiz shahridagi “San’at saroyi”da viloyat sektor rahbarlarining yoshlar bilan uchrashuvi boʻlib oʻtdi.

Viloyatda yoshlar bilan ishlash tizimini namunali tarzda tashkil etish maqsadida Termiz

shahri tanlab olingan. Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning bandligini ta’minlash, muammolarini hal etish, ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mas’ul etib, Termiz shahri sektor rahbarlari va tashkilotlar biriktirildi.

Image not found or type unknown

Shuningdek, mas’ullarga yoshlar bilan ishlashning yangi tizimini Termiz shahrida namunali tarzda tashkil etish bo‘yicha vazifalar belgilab berildi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown